



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



COOPERATION WITH THE COUNTRIES OF EAST ASIA IN THE SYSTEM OF COMPLEX INTERDEPENDENCE OF SECURITY OF CENTRAL ASIA

Saodat F. Ubaydullayeva

Senior Lecturer, PhD in Political Sciences

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: cooperation, dialogue, region, security, Central Asia, interests.

Received: 12.08.23

Accepted: 14.08.23

Published: 16.08.23

Abstract: The Central Asian region has witnessed a growing recognition of the complex interdependence of security, where the security of one nation is closely intertwined with the security of neighboring nations. Within this framework, cooperation with the countries of East Asia has gained significant importance in addressing the multifaceted security challenges faced by Central Asian countries. This article examines the dynamics and implications of cooperation between Central Asia and East Asia within the context of complex interdependence.

The complex interdependence of security in Central Asia necessitates a comprehensive approach that encompasses various dimensions such as political, economic, and socio-cultural factors. In this regard, East Asian countries have emerged as crucial partners for Central Asian nations due to their geostrategic location, economic potential, and shared security concerns. The article highlights the key areas of cooperation, including counterterrorism, border security, trade, energy, and infrastructure development.

The article further explores the motivations and benefits of cooperation between Central Asia and East Asia, emphasizing the mutual interests and advantages for both regions. For Central Asian countries, engagement with East Asia provides opportunities for economic diversification, access to new markets, and technological advancements. Simultaneously, East Asian countries benefit from enhanced regional stability, resource availability, and expanded trade networks through collaboration with Central Asia.

Moreover, the article addresses the challenges and potential obstacles that may hinder effective cooperation between Central Asia and East Asia. These challenges include geopolitical rivalries, historical disputes, differing political systems, and logistical constraints. The article emphasizes the need for diplomatic efforts, dialogue platforms, and confidence-building measures to overcome these obstacles and foster a cooperative regional security framework.

Finally, the article concludes by emphasizing the significance of cooperation between Central Asia and East Asia in the complex interdependence of security. It stresses the need for sustained engagement, policy coordination, and people-to-people exchanges to strengthen regional security, promote economic integration, and address common transnational threats. By embracing a cooperative approach, Central Asian and East Asian countries can build trust, enhance resilience, and foster sustainable development in the interconnected security landscape of Central Asia.

MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGI KOMPLEKS O‘ZARO BOG‘LIQLIK TIZIMIDA SHARQIY OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIK

*Saodat F. Ubaydullayeva,
Katta o‘qituvchi, siyosiy fanlar nomzodi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: hamkorlik, muloqot, mintaqa, xavfsizlik, Markaziy Osiyo, manfaatlar.

Annotatsiya: Markaziy Osiyo mintaqasida bir davlat xavfsizligi qo‘shni davlatlar xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligi tobora e‘tirof etilayotganiga guvoh bo‘ldi. Shu doirada Sharqiy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari duch kelayotgan ko‘p qirrali xavfsizlik muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqola murakkab o‘zaro bog‘liqlik sharoitida Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlikning dinamikasi va oqibatlarini ko‘rib chiqadi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlikning murakkab o‘zaro bog‘liqligi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillar kabi turli jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, Sharqiy Osiyo davlatlari geostrategik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va umumiy xavfsizlik muammolari tufayli Markaziy Osiyo davlatlari uchun hal qiluvchi sheriklar

bo‘lib chiqdi. Maqolada hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, terrorizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligi, savdo, energetika va infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishlari yoritilgan.

Maqolada Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlikning motivlari va afzalliklari ko‘rib chiqilib, ikkala mintaqa uchun o‘zaro manfaatlar va afzalliklarga urg‘u beriladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Sharqiy Osiyo bilan hamkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga chiqish va texnologik taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, Sharqiy Osiyo davlatlari Markaziy Osiyo bilan hamkorlik orqali mintaqaviy barqarorlik, resurslar mavjudligi va kengaygan savdo tarmoqlaridan foyda ko‘radi.

Bundan tashqari, maqolada Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi samarali hamkorlikka to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan muammolar va mumkin bo‘lgan to‘siqlar ko‘rib chiqiladi. Bu muammolarga geosiyosiy raqobat, tarixiy tortishuvlar, turli siyosiy tizimlar va logistik cheklovlar kiradi. Xulosa ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish va hamkorlikda mintaqaviy xavfsizlik tizimini rivojlantirish uchun diplomatik sa’y-harakatlar, muloqot platformalari va ishonchni mustahkamlash choralari zarurligiga urg‘u beradi.

Nihoyat, maqola xavfsizlikning murakkab o‘zaro bog‘liqligida Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlash bilan yakunlanadi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirish va umumiy transmilliy tahdidlarni bartaraf etish uchun barqaror hamkorlik, siyosatni muvofiqlashtirish va odamlar almashinuvi zarurligi ta’kidlanadi. Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo davlatlari hamkorlikdagi yondashuvni qo‘llash orqali Markaziy Osiyoning o‘zaro bog‘langan xavfsizlik landshaftida ishonchni mustahkamlashi, barqarorlikni oshirishi va barqaror rivojlanishga yordam berishi mumkin.

СОТРУДНИЧЕСТВО СО СТРАНАМИ ВОСТОЧНОЙ АЗИИ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОЙ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТИ БЕЗОПАСНОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Саодат Ф.Убайдуллаева,

Старший преподаватель, кандидат политических наук

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сотрудничество, диалог, регион, безопасность, Центральная Азия, интересы.

Аннотация: В регионе Центральной Азии наблюдается растущее признание сложной взаимозависимости безопасности, когда безопасность одной страны тесно переплетается с безопасностью соседних стран. В этих рамках сотрудничество со странами Восточной Азии приобрело важное значение в решении многогранных проблем безопасности, с которыми сталкиваются страны Центральной Азии. В данной статье рассматривается динамика и последствия сотрудничества между Центральной Азией и Восточной Азией в контексте сложной взаимозависимости.

Сложная взаимозависимость безопасности в Центральной Азии требует комплексного подхода, охватывающего различные аспекты, такие как политические, экономические и социокультурные факторы. В этом отношении страны Восточной Азии стали важнейшими партнерами для стран Центральной Азии из-за их геостратегического положения, экономического потенциала и общих проблем безопасности. В статье выделены ключевые направления сотрудничества, включая борьбу с терроризмом, пограничную безопасность, торговлю, энергетику и развитие инфраструктуры.

В статье далее исследуются мотивы и преимущества сотрудничества между Центральной Азией и Восточной Азией, подчеркивая взаимные интересы и преимущества для обоих регионов. Для стран Центральной Азии взаимодействие с Восточной Азией открывает возможности для экономической диверсификации, доступа к новым рынкам и технологическим достижениям. В то же время страны Восточной Азии получают выгоду от повышения региональной стабильности, доступности ресурсов и расширения торговых сетей благодаря сотрудничеству с Центральной Азией.

Более того, в статье рассматриваются проблемы и потенциальные препятствия, которые могут помешать эффективному сотрудничеству между Центральной Азией и Восточной Азией. Эти проблемы включают геополитическое соперничество, исторические споры, различные политические

системы и логистические ограничения. В статье подчеркивается необходимость дипломатических усилий, диалоговых платформ и мер по укреплению доверия для преодоления этих препятствий и укрепления совместной структуры региональной безопасности.

Наконец, статья завершается подчеркиванием значимости сотрудничества между Центральной Азией и Восточной Азией в сложной взаимозависимости безопасности. В нем подчеркивается необходимость устойчивого взаимодействия, координации политики и обмена между людьми для укрепления региональной безопасности, содействия экономической интеграции и противодействия общим транснациональным угрозам. Приняв подход сотрудничества, страны Центральной Азии и Восточной Азии могут укрепить доверие, повысить устойчивость и способствовать устойчивому развитию во взаимосвязанном ландшафте безопасности Центральной Азии.

KIRISH

Yaponiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yoʻnalishi anʼanaviy ravishda Osiyoga xos umumiy uygʻunlikka hamda mintaqa mamlakatlari bilan uzoq muddatli doʻstona aloqalarni yoʻlga qoʻyishga asoslangan. Kunchiqar davlat Markaziy Osiyoga qaratilgan siyosatidagi asosiy yoʻnalishlarni ushbu mintaqani yanada chuqur oʻrganish, Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy manfaatlarini shakllantirish, mintaqa mamlakatlari bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni yoʻlga qoʻyish, ushbu aloqalarning turli mexanizmlarini yaratish bilan birga, asta-sekin, tadrijiy ravishda ishlab chiqdi.

Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy aloqalarni kuchaytirish uchun ikki mexanizmdan, yaʼni turli darajalarda muntazam ravishda amalga oshiriladigan ikki tomonlama aloqalardan hamda koʻp tomonlama formatda oʻtkaziladigan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotidan foydalanadi. Bu mamlakatning Markaziy Osiyo davlatlari bilan oʻzaro ishonchli siyosiy muzokaralar olib borishdan maqsadi — avvalo, Yaponiya uchun qulay siyosiy muhit, ijobiy nufuz hamda oʻzining xalqaro va mintaqaviy tashabbuslariga nisbatan ochiqlik muhitini shakllantirish. Bu Yaponiya quyidagi manfaatlarini samarali tarzda himoya qilishi uchun muhim hisoblanadi: xalqaro maydonda Yaponiya nomzodi va tashabbuslarining, shuningdek BMTning Xavfsizlik Kengashiga doimiy aʼzolik mavqeyini olish uchun harakatlarining qoʻllab-quvvatlanishini taʼminlash; Markaziy Osiyoning xomashyo resurslaridan foydalanishga erishish; Yaponiya texnologiyasi va nou-xaularini oʻtkazish; boshqa davlatlar, shu jumladan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya tomonidan faollik

kuchayib borayotgan bir paytda mintaqada Yaponiya uchun qulay shart-sharoit yaratilishini ta'minlash va hokazo.

ASOSIY QISM

Ayrim ekspertlarning fikricha, "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti formatini tashkil qilish to'g'risidagi tashabbusning asosida mintaqa mamlakatlariga o'zaro bog'liqlik va birdamlikni mustahkamlashda, pirovardida, birlashgan va ancha rivojlangan Markaziy Osiyoga atrofidagi yirik davlatlardan imkon qadar mustaqil bo'lishida ko'maklashish istagi yotadi.

Markaziy Osiyoda Yaponiyaning geosiyosiy manfaatlari yo'q. Yaponiya o'z harakatlarini boshqa davlatlarning mintaqadagi siyosatiga qarshi qo'ymaydi, biroq ayni vaqtda Markaziy Osiyoning biror qudratli davlatga qaram bo'lishi yoki uning ta'siriga tushib qolishidan ham manfaatdor emas. Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida olib borilayotgan siyosiy muloqot mintaqa mamlakatlarining o'zlari orasida ham, tashqi kuchlar o'rtasida ham ana shunday manfaatlar mutanosibligini tadrijiy ravishda shakllantirishga yo'naltirilganki, bunday mutanosiblik Yaponiyaning Markaziy Osiyo hududida va atrofida o'z siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlarini ilgari surishiga to'sqinlik qilolmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, ular strategik sheriklar hisoblanadi. 30 yillik aloqalar mobaynida ikki tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini mustahkamlashga erishildi. "Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot", "Strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma bayonot" ana shu bazaning asosiy hujjatlaridir [1]. Tomonlar parlamentlararo forumlar doirasida, tashqi ishlar vazirliklari darajasida, iqtisodiy hamkorlik, siyosiy maslahatlashuvlar bo'yicha O'zbekiston—Yaponiya va Yaponiya—O'zbekiston qo'mitalari majlislarida hamda "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqot maydonida faol hamkorlik qilishmoqda.

Mazkur "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqot maydoni xavfsizlik masalalarini muhokama qilish uchun asosiy platformalardan biri hisoblanadi. Bu muloqot 2004-yildan buyon davom etmoqda va Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, shuningdek Yaponiyaning mintaqa mamlakatlari bilan munosabatlarini rivojlantirish kabilar uning asosiy vazifalari etib belgilangan[2]. Shu bois Yaponiya ushbu maydondan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha kompleks o'zaro bog'liqlik tizimini shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish uchun foydalanmoqda. Jumladan, Yaponiya ko'p yillar mobaynida mazkur maydon doirasida mintaqada terrorizmga va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlikni mustahkamlash haqida takliflar berib keldi. Afg'oniston muammosi ham Yaponiyaning diqqat markazida bo'lib, ushbu maydon orqali mazkur mamlakat iqtisodiyotini tiklash nuqtayi nazaridan xavfsizlik muammolarini hal qilish bo'yicha amaliy choralar ko'rishga

shaylik masalasi muntazam ravishda o'rtaga tashlanib kelmoqda[3]. Afg'onistonda hokimiyat "Tolibon" harakati qo'liga o'tganidan keyin Yaponiya tomoni "Tolibon" harakatining Qatardagi siyosiy ofisi orqali ularning vakillari bilan aloqa bog'lashni rejalashtirmoqda.

Muloqot doirasida mintaqa davlatlari ham Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni Yaponiya ishtirokida ta'minlash bo'yicha tashabbus bilan chiqishmoqda. Masalan, 2020-yil avgust oyida pandemiya sharoitida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqot maydoni tashqi ishlar vazirlarining kengashida O'zbekiston tomoni Markaziy Osiyo va Yaponiya davlatlari o'rtasida epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash va transchegaraviy epidemiyalarga qarshi kurashishda hamkorlik qilish masalalari bo'yicha birgalikda harakat qilish dasturini ishlab chiqib, qabul qilishni taklif etdi. Bu hol mintaqamamlakatlari Yaponiyaning Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kompleks o'zaro bog'liqlikning mintaqadan tashqaridagi ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritishidan manfaatdor ekanligini tasdiqlaydi.

Koreya Respublikasi Sharqiy Osiyo hududining mintaqadan tashqaridagi boshqa bir yirik o'yinchisi hisoblanadi. Koreya Respublikasi, Yaponiya singari, mintaqamamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama formatda faol hamkorlik qilmoqda.

Shuningdek, jahonning eng rivojlangan davlatlardan biri deb tan olingan Koreya Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro maydondagi strategik sheriklaridan biri hisoblanadi va bu hol barcha davlatlarning manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston Koreya Respublikasini o'zining tashqi siyosati sohasidagi asosiy strategik sheriklaridan biri deb biladi. Koreya Respublikasi O'zbekiston uchun ishonchli va davr sinovidan o'tgan strategik sherikdir. Shu sababli mamlakatimiz oshkoralik, hamjihatlik va o'zaro hurmat prinsiplariga asoslangan bunday hamkorlikni yuksak qadrlaydi [4].

Tomonlar xalqaro tashkilotlar, eng avvalo, BMT doirasida bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Koreya Respublikasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2018-yil 22-iyunda qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" to'g'risidagi rezolyutsiyasini ma'qulladi [5]. Mazkur Rezolyutsiyada qayd etilganidek, Markaziy Osiyodagi barqarorlik va rivojlanishga qarshi tahdidlar Markaziy Osiyo davlatlari hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar o'rtasida o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlikni talab qiladi hamda mazkur tahdidlarni bartaraf etish borasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishtirokidagi hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'zbekiston bilan Janubiy Koreya ishonchli va uzoq muddatli investitsiyaviy hamkorlardir" [6]. O'z navbatida, Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In o'z nutqida: "Koreya yangi siyosatining bir qismi sifatida Yevrosiyo mamlakatlari bilan transport, energetika yo'nalishlarida iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda. O'zbekiston doimo diqqatimiz markazida turibdi" [7], — deb ta'kidladi.

2017-yilda joriy etilgan hamda Koreya Respublikasining Shimoliy Osiyodagi Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Mo'g'uliston, Shimoliy Koreya davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatishga qaratilgan "Yangi shimoliy siyosat" tashabbusi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. Tashabbusning asosiy yo'nalishlaridan biri Koreya yarimorolidagi vaziyatni normallashtirishdan iborat.

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, O'zbekiston Koreya Respublikasining strategik sherigi sifatida bundan buyon ham koreys xalqining umumiy ravnaq va taraqqiyot maqsadida bir-biri bilan yaqinlashish, Koreya yarimorolida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi amaliy odimlarini qat'iy qo'llab-quvvatlashda davom etadi [8].

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari manfaatlarining umumiyligini hamda mintaqaviy va global xavfsizlikning ajralmas qismi ekanligini chuqur anglagan holda 1992-yilda Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga qo'shildi, 1993-yilda esa Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi. Markaziy Osiyo Antarktida (Antarktida to'g'risidagi shartnoma, 1959-y.); Lotin Amerikasi (Tlatelolko shartnomasi, 1967-y.); Tinch okeanining janubiy qismi (Rarotong shartnomasi, 1958-y.); Janubi-sharqiy Osiyo (Bangkok shartnomasi, 1995-y.); Afrika (Pelindab shartnomasi, 1996-y.) kabi mintaqalardan so'ng oltinchi yadro qurolidan xoli hudud bo'ldi [9].

O'zbekiston yadro qurolidan xoli hududlar maydonini izchil kengaytirib borish tarafdori bo'lib, Koreya yarimorolini nuklidlardan tozalash jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Bu hol, shubhasiz, Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish va mintaqada integratsiya jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi [10].

Koreya Respublikasida oliy darajadagi maxsus tuzilma — Shimoliy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Prezident qo'mitasi — tashkil etilganining o'zi belgilangan strategiyani amalga oshirish niyati jiddiyligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan Koreyaning mazkur tashabbusi Markaziy Osiyo davlatlariga Koreya Respublikasi bilan ham, loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan ham ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat berishi mumkin.

Qozog'iston ham Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ayrim hisob-kitoblarga qaraganda, Qozog'iston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi savdo aylanmasi 2022-yilda 6,1 milliard AQSH dollarini tashkil yetdi, shundan yeksport – 4,5 milliard AQSH dollarini, import – 1,6 milliard AQSH dollarini tashkil yetdi [11].

Mamlakatda 400 dan ziyod Janubiy Koreya kompaniyasi va 27 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Koreya Respublikasi Qozog'istonga asosan avtomobil, televizor va boshqa elektr tovarlarini eksport qiladi, Qozog'iston esa Koreya Respublikasiga asosan sanoat xomashyosi, jumladan mis va rux yetkazib beradi. Koreya kompaniyalari Qozog'istonning neft sanoatida ham ishtirok etishmoqda.

Shuningdek, Qirg'iz Respublikasi ham Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor bermoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarning kelajagi porloq. Shularni e'tiborga olib, Seul 2019-yilda Bishkekda Janubiy Koreya va Qirg'iziston kompaniyalari ishtirokida biznes-forum o'tkazdi.

Turkmaniston va Janubiy Koreyaning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlari davlatlararo munosabatlarning izchil rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turkmanistonda qator Koreya kompaniyalari faoliyat yuritib, neftni qayta ishlash hamda gaz-kimyoo komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishmoqda.

Tojikiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanib borayotganini hisobga olib, energetika, telekommunikatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim, turizm infratuzilmasi qurilishi va boshqa sohalardagi loyihalarni amalga oshirish doirasida birgalikda harakat qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasining (100 million dollarga yetmaydi) 90 foizga yaqini Janubiy Koreyadan import qilingan tovarlar ulushiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatda Koreya Respublikasi biznesi ishtirokida 16 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi vaqtda 2007-yilda Seul tashabbusi bilan tashkil etilgan hamkorlik bo'yicha "Koreya Respublikasi — Markaziy Osiyo" forumi o'z atrofida Koreya Respublikasi bilan mintaqalar mamlakatlarini ular o'rtasida har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalari bo'yicha birlashtirgan asosiy maydonlardan biri sanaladi. Markaziy Osiyoda ushbu forum mintaqalar davlatlari bilan Koreya Respublikasining munosabatlari yaxshilashda ko'maklashuvchi muhim va zarur maydon sifatida tan olindi.

XULOSA

O'zbekiston mazkur forumda faol ishtirok etmoqda. Forumning mintaqalar mamlakatlari va Koreya Respublikasi tashqi ishlar vazirlari ishtirokidagi oxirgi yig'ilishi 2021-yil 30-noyabrda Dushanbe shahrida bo'lib o'tdi. Yig'ilish yakuni bo'yicha tashqi ishlar vazirlarining qo'shma bayonoti qabul qilinib, unda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash chora-tadbirlarini kuchaytirish lozimligi qayd etildi.

Shunday qilib, ko'p tomonlama formatdagi hamkorlik Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha kompleks o'zaro bog'liqlik tizimini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 14-й Форум сотрудничества Центральная Азия — Республика Корея. 30.11.2021. — URL: <https://mfa.tj/ru/main/view/9265/14-forum-sotrudnichestva-tsentrlnaya-aziya-respubliki-koreya>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Yaponiya bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. — URL: <https://lex.uz/docs/557396>.

3. Central Asia plus Japan: Dialogue. — URL: <https://www.mofa.go.jp/region/europe/dialogue/index.html>
4. Участие Министра иностранных дел Японии Таро КОНО в 7-ом Совещании министров иностранных дел в рамках Диалога «Центральная Азия + Япония». — URL: https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr_ru/centralasiajapan.html
5. Анвар Самадов. Узбекистан — Республика Корея: новые горизонты взаимовыгодного сотрудничества. 28.05.2015 г. — URL: <https://koryo-saram.ru/uzbekistan-respublika-koreya-novye-gorizonty-vzaimovыgodnogo-sotrudnichestva/>
6. ВМТ Bosh Assambleyasi tomonidan 2018 yil 22-iyunda qabul qilingan Rezolyutsiya. — URL: <https://undocs.org/ru/A/RES/72/283>
7. Шавкат Мирзиёев: Узбекистан широко распахнул двери для корейского бизнеса. — URL: <https://uzreport.news/economy/shavkat-mirziyoev-uzbekistan-shiroko-raspahnul-dveri-dlya-koreyskogo-biznesa>
8. Президент Кореи назвал Узбекистан центром своей евразийской политики. 23.11.2017. — URL: <https://podrob№.uz/cat/politic/prezident-korei-nazval-uzbekistan-tsentrom-svoey-evraziyskoy-politiki/>
9. Президент Узбекистана приветствовал усилия по налаживанию партнерства между Республикой Корея и КНДР. 28.04.2018 г. — URL: <https://uzreport.news/politics/prezident-uzbekistana-privetstvoval-usiliya-po-nalajivaniyu-partnerstva-mejdu-respublikoy->
10. Зоны, свободные от ядерного оружия. — URL: <https://mybiblioteka.su/tom2/9-58925.html>
11. Узбекистан выступает за расширение географии безъядерных зон. — URL: <https://regnum.ru/news/polit/2160942>
12. Торгово-экономическое сотрудничество. — URL: <https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-seoul/activities/2133?lang=ru>
13. Zumarad, A., Nazira, T., & Feruza, S. (2022). FEATURES OF GROWTH OF FUNGI OF THE GENUS CANDIDA ON THE NUTRITIONAL BASIS OF RICE BRAN. EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review (CRER), 10(3), 1-3.
14. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. European Researcher. Series A, (8-2), 48-57.